

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktsional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 129,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 497,1 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etdi



Xizmatlar — iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 182,0 mlrd. so'mga o'sdi va 590,5 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 163,7 mlrd. so'mga o'sgan va 491,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VIII - diskret (avgust) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil IX – diskret (sentabr) oyining hajmi 102,6 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning VIII va IX – diskret oylari o'rtasidagi farqi 45,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 129,7	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	181,0	111,7
Moliyaviy xizmatlar	928,4	133,5
Transport xizmatlari	752,1	101,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	656,3	104,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	144,5	86,0
Savdo xizmatlari	1 322,2	95,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	72,3	89,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	116,8	93,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	50,4	103,7
Ijara xizmatlari	64,6	94,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	60,6	95,6
Shaxsiy xizmatlar	93,0	95,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	188,0	118,0
Boshqa xizmatlar	155,8	87,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (22,5 %), transport xizmatlari (18,2 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha (4,5 %) qayd etildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hisssasi - 1,8 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (33,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (18,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3,7 %) va transport xizmatlari (1,2 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi




Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (14,0 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (10,4 % ga), ta'lim sohasidagi xizmatlar (6,3 % ga), ijara xizmatlari (5,8 % ga), kompyuter ta'mirlash xizmatlari (4,4 % ga), savdo xizmatlari (4,3 % ga), shuningdek, shaxsiy xizmatlar (4,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,0 % ni tashkil etib, bu 1 322,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)



Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari)



Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismidan ko'prog'iga, aniqrog'i 81,2 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 928,4 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 659,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni ulushi 18,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 269,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 33,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni o'sish sur'ati 172,3 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,8 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 6,1 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,1 % ni tashkil etadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 181,0 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,7 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)




Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommuni-katsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Inter-net tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,2 % ni tashkil etdi.	Aloqa va axborotlashtirish xizmat-larining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat be-rish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,4 %, boshqa aloqa xiz-matlari - 0,1 %, axborot sohasidagi xiz-matlar - 0,7 % shuningdek, noshirlik xizmatlari - 0,6 % dan tashkil etdi.
---	---

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim so-hasidagi xizmatlar hajmi 116,8 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,7 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)


O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 86,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 144,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,5 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 8,5 mlrd. so'mga kamaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,1 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 50,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Dastlabki ma'lumotlar

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 18,2 %. Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 87,3 % ni tashkil etdi.


Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 65,9 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 51,4 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, eng katta ulush Karmana tumanida (12,2 %), Zarafshon shahrida (10,1 %), Qiziltepa (7,3 %) va Xatirchi (5,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Tomdi (1,7 %), Nurota (2,2 %), Konimex (3,0 %), Navbahor (3,5 %) va Uchquduq (3,6 %) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi 50,7 % ni tashkil etgan.

Tomdi tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,7 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy (105,8 %) va Zarafshon (103,7 %) shaharlarida, Qiziltepa (103,4 %), Karmana (102,9 %), Uchquduq (102,5 %), Xatirchi (102,2 %) va Nurota tumanlarida (102,0 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish Navbahor (1,7 %), Konimex (1,5 %) va Tomdi (1,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Navoiy shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 281,8 mlrd. so'mga oshdi va 2 122,2 mlrd. so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
Navoiy viloyati	4 129,7	104,3	112,8
Navoiy sh.	2 122,2	105,8	118,0
Zarafshon sh.:	415,9	103,7	112,1
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	122,4	101,5	104,9
Qiziltepa	303,5	103,4	111,7
Navbahor	143,2	101,7	106,6
Karmana	505,1	102,9	107,0
Nurota	92,2	102,0	105,6
Tomdi	69,2	101,3	105,2
Uchquduq	148,3	102,5	106,2
Xatirchi	207,7	102,2	106,5

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Karmana tumani (505,1 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (415,9 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (303,5 mlrd. so'm) va Xatirchi (207,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumanlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 116,5 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi– 4 116,5 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-sentabr
oylari holatiga ko'ra, % da – 102,5 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-sentabr
oylariga nisbatan, - 432,3 ming so'mga

Taqqoslash uchun: Tomdi tumanida aholi soni (2020 yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 14,8 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 4 670,3 ming so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Navoiy shahrida 14 623,6 ming so'mdan Xatirchi tumanida 1 037,8 ming so'mgacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni

12 840
birlik


Ularning umumiy
sonidagi ulushi

64,7 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari

128,4 %

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 64,7 %, sanoat - 16,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi 11,1 %, qurilish - 7,8 % ga yetdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (50,4 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 10 002 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 42,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,2 %, tashish va saqlash - 5,3 %, axborot va aloqa - 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 36,3 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 838 taga ko'paydi.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 50,9 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 186 taga ko'paydi va 6 477 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 14,7 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 165 taga ko'paydi va 1 287 tani tashkil etdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining his-sasi 83,6 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 79,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 835 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 739 tani tashkil etdi va o'sishi esa 35,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,8 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,4 % ekvivalentida qayd etildi.



Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Тел.: 79-223-63-31